



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

D.LUTFULLAYEVA, M.SAPARNIYAZOVA

**«HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILI»
FANIDAN TALABALAR MUSTAQIL
ISHLARINI TASHKIL ETISH**


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

D.Lutfullayeva, M.Saparniyazova

«HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILI» FANIDAN
TALABALAR MUSTAQIL ISHLARINI
TASHKIL ETISH

(Uslubiy ko'rsatma)



TOSHKENT – 2018

Mazkur uslubiy ko'rsatma Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU o'zbek filologiyasi fakulteti uslubiy kengashi qarori (27.10.2017) bilan nashrga tavsiya etilgan.

Taqrizchilar: **O.To'xtasinova**, Qo'qon DPI o'zbek tilini o'qitish metodikasi kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

N.Sayidrahimova, Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU o'zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

SO‘ZBOSHI

Ma'lumki, oliy o'quv yurtlarida «Talaba mustaqil ishini tashkil etish, nazorat qilish va baholash tartibi to'g'risida Namunaviy nizom» asosida ta'lim yo'nalishlarida barcha o'quv fanlari bo'yicha mustaqil ishlarni tashkil etish yo'lga qo'yilgan. Bundan kutilgan maqsad talabada muayyan o'quv fani bo'yicha topshiriqlarni mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishdir.

Fanlar bo'yicha tashkil etiladigan mustaqil ishlar talabalarni ijodiy mustaqillikka undaydi, ularni erkin mushohada yuritishga o'rgatadi, fan bo'yicha egallagan nazariy bilimlarini yanada mustahkamlaydi. Negaki talabalarga mustaqil ishlarni bajarishda qo'yiladigan talablar ulardan fanning ma'lum jabhalarini mustaqil tarzda chuqurroq o'rganishni, buning uchun turli izlanishlar olib borishni taqozo etadi.

Talabalarga mustaqil ishlarni bajarishda qo'yiladigan talablar quyidagilardan iborat bo'lmog'i lozim:

1) mustaqil ish topshirig'i bo'yicha zarur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish;

2) mustaqil ish mavzusi bo'yicha axborot manbalarini aniqlash hamda o'quv adabiyotlari, elektron manbalar va ma'lumotlar bankini yaratish;

3) mustaqil ish mavzusiga aloqador mavjud ilmiy manbalar, darslik va o'quv qo'llanmalari hamda me'yoriy hujjatlar bilan tanishish, ularni tanqidiy o'rganish va maqsadli ravishda foydalanish;

4) mustaqil ish topshirig'ini bajarishda yuzaga kelgan ilmiy xulosalarni nazariy jihatdan asoslash va uning ratsional yechimini belgilash;

5) mustaqil ish topshirig'ini ijodiy va mustaqil ravishda bajarishga erishish;

6) mustaqil ish topshirig'ini mutaxassislik kafedralarida ochiq himoya qilish.

Albatta, talaba tomonidan bu vazifalarning amalga oshirilishi ularga yuksak mas'uliyat yuklaydi, talabani mustaqil ishlashga o'rgatadi, uni kichik tadqiqot egasiga aylantiradi. Fanga doir mavzularni mustahkamlashning bu tarzda tashkil qilinishi ta'lim tizimida, albatta, ijobiy samarasini ko'rsatadi.

Ma'lumki, fanlar bo'yicha talaba mustaqil ishlarini o'tkazish tartibi, undagi topshiriqlar tizimi tegishli kafedralarda ishlab chiqiladi va

muhokama qililib, kafedra, fakultet ilmiy-uslubiy kengashlarida tasdiqdan o'tkaziladi.

Har bir fan bo'yicha tashkil etiladigan mustaqil ishlar talabalarning auditoriyadan tashqarida olib boradigan faoliyati turi hisoblangani uchun topshiriqlar tizimini belgilash jarayonida auditoriyadan tashqaridagi mavjud imkoniyatlar, xususan, mavzuga aloqador o'quv-ilmiy manbalarning yetarli ekanligi va talabning ulardan foydalanish imkoniyati mavjudligi hisobga olinadi.

Fanlar bo'yicha tuzilgan mustaqil ishlar topshiriqlari, uni o'tkazish tartibi va baholash mezonlari o'quv yili (semestri) boshidayoq talabalarga taqdim etiladi.

Albatta, har bir o'quv fani bo'yicha semestr davomida talabalarning mustaqil ishlarini muntazam ravishda nazorat etib borish bu yo'nalishda olib borilajak ishlarning samarasini ta'minlaydi.

Talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish vazifasini amalga oshirish uchun kafedralar tomonidan talabalarga zaruriy uslubiy qo'llanmalar va amaliy tavsiyanomalarni ishlab chiqish zarur bo'ladi. Mana shu maqsad asosida tuzilgan ushbu uslubiy qo'llanmamiz oliy o'quv yurtlari o'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi talabalariga «Hozirgi o'zbek adabiy tili» fanidan mustaqil ishlarni bajarishlari uchun amaliy yordam beradi degan umiddamiz.

Ushbu o'quv-uslubiy qo'llanma talabalarni «Hozirgi o'zbek adabiy tili» fani bo'yicha mustaqil ishlarni bajarish uchun axborot manbalari bilan tanishtiradi, talabalarga belgilangan mavzular bo'yicha kerakli ma'lumotlarni to'plash yuzasidan ko'rsatmalar beradi.

O'quv-uslubiy qo'llanmada quyidagi vazifalarni amalga oshirish ko'zda tutildi:

– oliy o'quv yurtlarida mustaqil ishlarni tashkil etishning umumiy masalalarini yoritish;

– o'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishida o'tiladigan «Hozirgi o'zbek adabiy tili» fani yuzasidan mustaqil ish topshiriqlarni ishlab chiqish;

– «Hozirgi o'zbek adabiy tili» fani yuzasidan ayrim mustaqil ishlarni bajarishga oid amaliy tavsiyalarni bayon etish.

«Hozirgi o'zbek adabiy tili» fani bo'yicha topshiriqlar tizimini yaratish va ularni bajarishga doir amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 13 maydagi "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil to'g'risida"gi farmoni, Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari

hamda fanga doir darslik va o'quv qo'llanmalari nazariy asos bo'lib xizmat qildi. Mana shularni e'tiborga olib, o'quv-uslubiy qo'llanmada foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati ham ilova etildi.

I. «HOZIRGI O‘ZBEK ADABIY TILI» FANIDAN MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL ETISH

1.1. «Hozirgi o‘zbek adabiy tili» fani bo‘yicha mustaqil ishlarni tashkil etishdan ko‘zlangan maqsad va vazifalar

Hozirgi vaqtda oliy ta’lim muassasalarida talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etish O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2008- yidagi 286-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan **“Talabalarning mustaqil ishini tashkil etish tartibi”** namunaviy Nizomi asosida amalga oshirilmoqda.

Talabaning mustaqil ishi o‘quv rejada muayyan fanni o‘zlashtirish uchun belgilangan o‘quv soatining ajralmas qismi bo‘lib u uslubiy axborot resurslari bilan ta’minlanadi.

“Talabalarning mustaqil ishini tashkil etish tartibi” namunaviy Nizomida oliy o‘quv yurtlarida talabaning haftalik mustaqil ishlarining umumiy hajmi bakalavriat yo‘nalishida 22 soatni tashkil etishi belgilangan. Ushbu Nizomga muvofiq talabaning mustaqil ishi bo‘yicha to‘plagan reyting ballari o‘quv semestri yakunida har bir fan bo‘yicha auditoriyadagi o‘quv ishlariga berilgan reyting ballari bilan birgalikda guruh reyting qaydnomasida, talabaning reyting daftarchasida va o‘qish yakunida bitiruvchiga taqdim etiladigan diplom ilovasida qayd etiladi.

Mustaqil ta’lim har bir fanning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda referat, uy vazifasi, prezentatsiya, kurs ishi va shu kabi boshqa shakllarda amalga oshirilishi mumkin.

Mustaqil ta’lim turlariga quyidagilar kiradi:

- ayrim mavzularni o‘quv adabiyotlari yordamida mustaqil o‘zlashtirish;
- berilgan mavzu bo‘yicha referat tayyorlash;
- amaliy mashg‘ulotlar va seminarlarga tayyorgarlik ko‘rish;
- laboratoriya ishlarini bajarishga tayyorgarlik ko‘rish;
- kurs ishlarini bajarish;
- nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash;
- mavzu yoki ma’lum bir bob bo‘yicha tahliliy ma’lumotlar asosida xulosalar qilish va ilmiy maqola tayyorlash;
- anjumanlarda ma’ruzalar bilan qatnashish;
- bitiruv malakaviy ishini tayyorlash;

- magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash;
- fanlar bo'yicha uyga berilgan topshiriqlarni bajarish;
- mavzular bo'yicha slaydlar, prezentatsiyalar tayyorlash.

O'qitilayotgan fanning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda talabalar mustaqil ishini tashkil etishda boshqa shakllardan ham foydalanish mumkin.

O'qitiladigan fanlar bo'yicha ishchi o'quv dasturlarida talabalar mustaqil ishining mazmuni, mohiyati, shakli va hajmi hamda manbalari ko'rsatiladi.

Shuningdek, "Talabalarning mustaqil ishini tashkil etish tartibi" namunaviy Nizomiga muvofiq har bir fan bo'yicha tashkil etiladigan mustaqil ishlar shakli, mazmuni va hajmi namunaviy va ishchi o'quv dasturlarida o'z aksini topishi talab etiladi. Jumladan, oliy o'quv yurtlari o'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi uchun tuzilgan namunaviy o'quv rejada «Hozirgi o'zbek adabiy tili» fani uchun ham "Talabalarning mustaqil ishini tashkil etish tartibi" namunaviy Nizomiga muvofiq tarzda mustaqil ishlar uchun o'quv soatlari ajratilgan.

Ma'lumki, o'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishida o'quv rejasiga muvofiq bakalavr bosqichining 1-, 2-, 3-kurslarida «Hozirgi o'zbek adabiy tili» fanidan mashg'ulotlar o'tiladi.

«Hozirgi o'zbek adabiy tili» fanining hajmi (1-2-3-kurslar uchun)

№	Mashg'ulot turi	Ajratilgan soatlar	Semestrlar
1.	Nazariy [ma'ruza]	54+18+32+44+22	2-, 3-, 4-, 5-, 6
2.	Laboratoriya	60+20+44+50+16	2-, 3-, 4-, 5-, 6
3.	Mustaqil ta'lim	90+40+44+44+38	2-, 3-, 4-, 5-, 6
	Jami		

Ko'rinadiki, talabalarning mustaqil ishlari «Hozirgi o'zbek adabiy tili» fanini o'zlashtirish uchun belgilangan o'quv ishlarining ajralmas qismi sanaladi va muayyan o'quv soatlari bilan ajratiladi. Shuningdek, «Hozirgi o'zbek adabiy tili» fanidan talabaning mustaqil ishi ajratilgan soatga mos reyting ballari bilan baholanadi.

«Hozirgi o'zbek adabiy tili» fani bo'yicha olib boriladigan o'quv mashg'ulotlarida egallangan nazariy bilimlarni amaliy qo'llanishga tatbiq etish, talabalarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish, nazariy

masalalarni daliliy misollar yordamida ilmiy asoslashga o'rgatish va shu orqali talabalarni ilmiy izlanishlar olib borish muhitiga olib kirish, shu bilan birga, ularda ilmiy nutqni izchil, maqsadga muvofiq tarzda og'zaki va yozma shakllarda bayon eta olish ko'nikmasini shakllantirish mazkur fan bo'yicha tashkil etiladigan mustaqil ishlarning asl maqsadi hisoblanadi.

Mana shu maqsadlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan mustaqil ishlar talabalarning «Hozirgi o'zbek adabiy tili» fani bo'yicha o'quv materiallarni o'zlashtirishlariga yordam berishi bilan bir qatorda, ularni mustaqil ilmiy izlanish olib borishga, savollarga mustaqil javob topish va erkin fikr yuritishga o'rgatadi.

«Hozirgi o'zbek adabiy tili» fanidan tashkil etilajak mustaqil ishlar ham talabaning auditoriyadan tashqarida olib boradigan mustaqil faoliyat turi sanaladi. Bu holat talabani mustaqil tarzda izlanishlar olib borishga undaydi, ularni erkin tadqiqot olib borish muhitiga olib kiradi.

«Hozirgi o'zbek adabiy tili» fanidan tashkil etilajak talabalarning mustaqil ishlarini muammoli ta'lim tizimi jarayoni bilan bog'liq tarzda olib borish maqsadga muvofiqdir.

Talabalar «Hozirgi o'zbek adabiy tili» fani yuzasidan belgilangan mustaqil ishlarni bajarishda quyidagi vazifalarni bajarishlari lozim bo'ladi:

1) mustaqil ish topshirig'ining asl mohiyatini belgilab olish: topshiriqdan ko'zlangan maqsad va amalga oshiriladigan vazifalarini to'g'ri belgilash;

2) nazariy muammolar tahliliga doir mustaqil ish mavzusining tadqiq darajasini o'rganish va unga tanqidiy munosabat bildirish;

3) mustaqil ish mavzusi bo'yicha mavjud nazariy qarashlarni tahlil qilish va daliliy misollar to'plash asosida mustaqil ravishda ilmiy-nazariy xulosalar chiqarish;

4) mustaqil ish topshirig'ini bajarishda til hodisalarini o'zaro aloqa-bog'lanishda o'rganish, ularning umumiy va farqli belgilarini ajratish;

5) nazariy muammolar tahliliga doir mustaqil ish topshirig'ini bajarishda nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish;

6) mustaqil ish mavzusi yuzasidan umumlashma ilmiy-nazariy xulosalar chiqarish.

«Hozirgi o'zbek adabiy tili» fanidan nazariy muammolar tahliliga doir mustaqil ishlarni yozishda ilmiy-nazariy tafakkurni shakllantirishga yo'naltirilgan tahlil usullari: tavsiflash, qiyoslash, zidlash, umumlashtirish, komponent tahlil kabi usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

«Hozirgi o‘zbek adabiy tili» fani bo‘yicha belgilangan mustaqil ishlarni nazorat qilish fan o‘qituvchisi zimmasiga yuklatiladi. Fan o‘qituvchisi mustaqil ishlar topshirig‘ini bajarish uchun talabalarga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatib boradi, belgilangan konsultatsiyalar jadvali asosida talabalar bilan ishlaydi, ularga mustaqil ish topshirig‘ini bajarish uchun uslubiy ko‘rsatmalar berib boradi.

Fan o‘qituvchisi «Hozirgi o‘zbek adabiy tili» fani bo‘yicha mustaqil ishlarni bajarishga doir o‘z uslubiy tavsiyalarini ishlab chiqadi va ularni semestr boshidayoq talabalarga taqdim etadi. Albatta, bu kabi uslubiy qo‘llanmalar talabalarga mustaqil ishlarni bajarishlarida amaliy yordam ko‘rsatadi.

«Hozirgi o‘zbek adabiy tili» fani bo‘yicha tashkil etiladigan mustaqil ishlar talabalarni ilmiy-ijodiy faoliyat olib borishga yo‘naltiradi. Bu fan bo‘yicha belgilangan mustaqil ishlarni bajarish jarayonida talabalar quyidagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar:

1. Talaba «Hozirgi o‘zbek adabiy tili» fani bo‘yicha nazariy muammolar tahliliga doir bilimlarni mustaqil ravishda va ijodiy tarzda o‘zlashtiradi.

2. Talaba ilmiy muammoga aloqador ilmiy-nazariy manbalarni mustaqil tarzda tahlil qilishi natijasida mavjud nazariy qarashlarga tanqidiy munosabat bildirish ko‘nikmasiga ega bo‘ladi.

3. Talaba mustaqil tarzda mavzuning tadqiq darajasini belgilaydi hamda mavzuning ilmiy-nazariy qimmati va amaliy ahamiyatini belgilaydi.

4. Talaba madaniy nutqini rivojlantirib boradi, u og‘zaki va yozma nutqini aniq, to‘g‘ri, maqsadli, mantiqiy tarzda bayon etish malakasiga ega bo‘ladi.

«Hozirgi o‘zbek adabiy tili» fani bo‘yicha tashkil etiladigan mustaqil ishlar talabalarning milliy tilimiz ichki qonuniyatlarini yanada chuqurroq o‘zlashtirishlariga yordam berishi jihatidan ham ahamiyatlidir. Negaki mavzuni mustaqil o‘zlashtirish jarayonida talaba ilmiy izlanishlar olib boradi, xulosalarini taqqoslaydi, nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llab ko‘radi. Natijada fan bo‘yicha tashkil etiladigan mustaqil ishlar orqali talabalarda tilning nutqiy qo‘llanishdagi imkoniyatlarini chuqurroq o‘rganish imkoniyati tug‘iladi.

1.2. «Hozirgi o‘zbek adabiy tili» fanidan semestrlar bo‘yicha mustaqil ish turlari va mavzulari

Ma'lumki, oliy o'quv yurtlarida har bir fan bo'yicha tashkil etiladigan mustaqil ish turlari kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan o'quv rejasiga muvofiq tarzda ishlab chiqiladi. So'ngra kafedra va fakultet ilmiy-uslubiy kengashlarida muhokama etilib tasdiqdan o'tkaziladi.

O'quv fanlariga doir mustaqil ishlar ishlanmasi: topshiriq turi va mavzulari, har bir topshiriq uchun belgilangan reyting ballari o'quv semestri boshidayoq talabalar hukmiga havola etiladi. Talabalar mustaqil ish topshiriqlarini qabul qilgach, uni bajarish uchun kirishadilar.

Professor-o'qituvchilar o'zi o'tayotgan fan bo'yicha mustaqil ishlar topshiriqlarini tuzishda talabalarining fanga oid mavjud nazariy bilimlari, ko'nikmalarini hamda qiziqishlari va berilgan topshiriqlarni bajara olish imkoniyatlari mavjud yoki mavjud emasligini e'tiborga olishlari lozim bo'ladi. Negaki professor-o'qituvchi tomonidan tavsiya etilajak mavzularni o'zlashtirishda talabaning mustaqil ishlash qobiliyati yetarli emasligi va uning mavzuni mustaqil tarzda o'zlashtira olmasligi kabi omillar ham muhim o'rin tutadi. Talaba hali o'rganilmagan mavzu bo'yicha o'z ilmiy qarashlarini chiqara olmasligi yoki uning hali ilmiy izlanishlar olib borishga iqtidori yetarli bo'lmasligi mumkin. Shu sababli mustaqil ish mavzularini belgilashda mavzuning tilshunoslikda qay darajada o'rganilganligi, talabaning mavzuni mustaqil tarzda o'zlashtira olish-olmasligini ham inobatga olish lozim bo'ladi.

Professor-o'qituvchilar o'zi o'tayotgan fan, jumladan, «Hozirgi o'zbek adabiy tili» fani bo'yicha mustaqil ishlar topshiriqlarini tuzishda quyidagi masalalarga e'tiborlarini qaratishlari maqsadga muvofiq bo'ladi:

1. Talabalar «Hozirgi o'zbek adabiy tili» fani bo'yicha belgilangan mavzularni mustaqil o'zlashtirishlari uchun ilmiy manbalar, darslik va o'quv qo'llanmalarining, elektron manbalarning yetarli ekanligi.

2. «Hozirgi o'zbek adabiy tili» fani bo'yicha mustaqil ishlar mavzulariga doir ilmiy-nazariy ta'limotning tilshunoslikda shakllanib ulgurganligi, bu muammoga doir ilmiy qarashlarning yetarli va rang-barang ekanligi.

3. Talabalarining «Hozirgi o'zbek adabiy tili» fani bo'yicha belgilangan mustaqil ishlar mavzularini mustaqil tarzda o'zlashtira olish qobiliyatlariga ega ekanligi.

4. «Hozirgi o'zbek adabiy tili» fani bo'yicha belgilangan mustaqil ishlar mavzulari talabani mavzuga doir ilmiy-nazariy xulosalar chiqara olishga o'rgatishi lozimligi.

5. «Hozirgi o'zbek adabiy tili» fani bo'yicha belgilangan mustaqil ishlar mavzulari talabani nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qilishi lozimligi.

Ma'lum bo'ladiki, «Hozirgi o'zbek adabiy tili» fani bo'yicha tuziladigan mustaqil ishlar topshirig'i talabalarni nafaqat fanga doir ilmiy-nazariy bilimlarni mustaqil ravishda egallashlarini, balki o'z fikr-mulohazalarini og'zaki va yozma tarzda to'g'ri, mantiqli, maqsadga muvofiq, izchil hamda ifodali tarzda bayon etishga o'rgatishni ham nazarda tutadi.

«Hozirgi o'zbek adabiy tili» fani bo'yicha mustaqil ishlarni talabalarning fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda og'zaki va yozma tarzda turli shakllarda tashkil etsa bo'ladi. Masalan, "Morfemika" bo'limi bo'yicha quyidagi tarzda mustaqil ish topshirig'ini berish mumkin:

✓ Ilmiy manbalar asosida XX asr o'zbek tilshunosligida morfemik birliklar tadqiqi yuzasidan erishilgan yutuqlarni umumlashtiring.

✓ Tilshunos olim Y.Tojiyevning "O'zbek tili morfemikasi" qo'llanmasidagi *so'z-o'zak-morfema* birliklari to'g'risidagi nazariy qarashlar bilan tanishing (Y.Tojiyev. O'zbek tili morfemikasi. – Toshkent,1992.). Ular o'rtasidagi umumiylik va xususiylik to'g'risida ilmiy xulosa yozing.

✓ Umumiy o'rta ta'limda o'qitilayotgan "Ona tili" va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limida amalda bo'lgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsliklaridagi morfemikaga oid mavzularni tahlil qiling.

«Hozirgi o'zbek adabiy tili» fanining "Morfologiya" bo'limini o'tishda so'z turkumlariga oid nazariy qarashlar tahlili yuzasidan ilmiy referat yozish mumkin. Yoki bo'lmasa, talabalarga mustaqil ravishda hamda ijodiy yondashgan holda so'z turkumlarining morfologik xususiyatlarini aks ettiruvchi turli jadvallarni tuzish, grammatik topshiriqlar tizimini yaratish, badiiy matn asosida so'z turkumlarini tahlil qilish topshirig'ini bersa ham bo'ladi.

Ma'lumki, so'z turkumlari "Morfologiya" bo'limining markaziy masalalaridan biri sanaladi. Jahon tilshunosligida, jumladan, o'zbek

tilshunosligida ham soʻz turkumlarini oʻrganish yuzasidan katta yutuqlar qoʻlga kiritilgan. Talaba mana shu yutuqlarni ilmiy jihatdan oʻrganib, oʻzining umumlashma xulosalarini chiqarishi lozim boʻladi. Talabaning bu ilmiy xulosalari unga ilmiy referat yozish uchun nazariy asos boʻlib xizmat qiladi.

«Hozirgi oʻzbek adabiy tili» fani boʻyicha mustaqil ishlarni bajarishda talaba quyidagi vazifalarni ado etishi lozim boʻladi:

1. Talaba «Hozirgi oʻzbek adabiy tili» fani boʻyicha mustaqil ish mavzularini darslik va oʻquv qoʻllanmalari, elektron manbalar yordamida mustaqil ravishda oʻzlashtirishi lozim.

2. Talaba «Hozirgi oʻzbek adabiy tili» fani boʻyicha berilgan ilmiy mavzularni oʻrganish orqali mavzuga doir adabiyotlar kartotekasini tuzishi lozim.

3. Talaba «Hozirgi oʻzbek adabiy tili» fani boʻyicha berilgan ilmiy mavzularni referat yozish yoki konspekt tuzish asosida oʻzlashtirishda lingvistik tahlil metodlarini amalda qoʻllashi va olingan natijalarni daliliy misollar orqali izohlashi zarur.

4. Talaba «Hozirgi oʻzbek adabiy tili» fanidan mustaqil ishlarni bajarish jarayonida egallangan nazariy bilimlarini amaliyotga tatbiq etishi lozim.

5. Talaba «Hozirgi oʻzbek adabiy tili» faniga doir ayrim mavzularni oʻzlashtirishda zarur oʻrinlarda mavzuga doir tarqatma materiallar, nazorat topshiriqlari hamda koʻrgazmali qurollarni ishlab chiqishi ham mumkin.

«Hozirgi oʻzbek adabiy tili» fani boʻyicha mustaqil ish topshiriqlari ayni fanning mohiyatidan kelib chiqqan holda boshqa shakllarda, jumladan, davra suhbatlari oʻtkazish, ilmiy munozaralar tashkil etish yoki turli ilmiy, ommabop maqolalar yozish tarzida ham tashkil etilishi mumkin.

«Hozirgi oʻzbek adabiy tili» fani boʻyicha quyidagi mavzularda mustaqil ishlarni tashkil etish mumkin:

**1. «HOZIRGI O‘ZBEK ADABIY TILI»FANIDAN MUSTAQIL
TA‘LIM MAVZUSI VA MAZMUNI
(2 - semestr)**

/r	Mustaqil ta‘lim mavzulari	Dars soatlari hajmi
1.	“Hozirgi o‘zbek adabiy tili” fani darslik va o‘quv qo‘llanmalarining qiyosiy tahlili.	2
2.	“Hozirgi o‘zbek adabiy tili” fanining “Fonetika” bo‘limida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari sharhi.	4
4.	“Fonologiya”ning jahon va o‘zbek tilshunosligi miqyosida o‘rganilishi.	2
	Jami:	8 soat

**2. «HOZIRGI O‘ZBEK ADABIY TILI»FANIDAN MUSTAQIL
TA‘LIM MAVZUSI VA MAZMUNI (3-, 4- semestrlar)**

1.	Fonologik zidlanishlar.	2
2.	Korrelyatsiya, uning fonologik sistemadagi o‘rni.	2
3.	Fonemalarning integral va differensial belgilari.	2
4.	Hozirgi o‘zbek adabiy tili vokalizmi.	2
5.	Hozirgi o‘zbek adabiy tili konsonantizmi.	2
6.	Grafika – yozuv tizimining yetakchi komponenti.	2
7.	Orfografiya tamoyillari.	2
8.	Leksemaning semantik tarkibi.	2
9.	Leksemaning uzual va okkazonal ma‘nolari.	2
10.	Leksik monosemiya va polisemiya.	2
11.	Soddalanish hodisasi.	2
12.	Morfologik qayta bo‘linish hodisasi.	2
13.	Pleonazm hodisasi.	2
14.	Sinxron yasaliş va uning o‘ziga xos xususiyatlari.	2
15.	Diaxron yasaliş va uning o‘ziga xos xususiyatlari.	2
16.	So‘z yasalişning usullari.	2
17.	Otlarda so‘z yasaliş.	2
18.	Sifat turkumiga xos so‘z yasaliş.	2

19.	Fe'l yasalishining o'ziga xos xususiyatlari.	2
20.	Qo'shma fe'llar va ularning semantikasi.	2
21.	Ravish yasalishi.	2
22.	Lisoniy va nutqiy o'timli-o'timsizlik.	2
	Jami:	44

5-, 6- SEMESTRLAR

3. «HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILI»FANIDAN MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI

№	Mustaqil ta'lim mavzulari	Dars soatlari hajmi
5-semestrda		
1.	Ko'makchilar presuppositsiyasi.	4
2.	Yuklamalar presuppositsiyasi.	4
3.	Undov va taqlid so'zlarning uslubiy xususiyatlari.	4
4.	Modal so'zlarning uslubiy xususiyatlari.	4
5.	So'z binikmasi haqidagi sintaktik nazariyalar.	4
6.	Gap haqidagi sintaktik nazariyalar.	4
7.	Gapning ifoda maqsadi kategoriyasi.	4
8.	Gapning shaxs-son va zamon kategoriyalari.	4
9.	Gapning tasdiq-inkor kategoriyalari.	4
10.	Gapning aktual bo'linishi.	4
11.	Qo'shma gaplar semantikasi.	4
	Jami	44

№	Mustaqil ta'lim mavzulari	Dars soatlari hajmi
6-semestrda		
1.	Qo'shma gaplar haqidagi nazariy qarashlar.	6
2.	Qo'shma gaplarda shakl va mazmun munosabati.	4
3.	Qo'shma gaplarning tasnifi masalasi.	4

4.	Havola bo'lakli qo'shma gaplar haqidagi nazariy qarashlar.	4
5.	Ergashgan qo'shma gaplarda mazmuniy munosabat ko'rinishlari.	4
6.	Bog'lovchisiz qo'shma gaplar haqidagi nazariy qarashlar.	4
7.	Shartlanganlik munosabatli qo'shma gaplar haqidagi nazariy qarashlar.	4
8.	Murakkab qo'shma gaplar haqidagi nazariy qarashlar.	4
9.	O'zga gapli qurilmalar haqidagi nazariy qarashlar.	4
Jami		38

II. «HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILI» FANIDAN MUSTAQIL ISHLARNI BAJARISHGA DOIR KO'RSATMALAR

2.1. «Hozirgi o'zbek adabiy tili» fanidan ilmiy referat yozish tartibi

«Hozirgi o'zbek adabiy tili» fanidan mustaqil ishlar topshirig'i turli shakllarda berilishi mumkin. Jumladan, biror ilmiy mavzu bo'yicha ilmiy referat yoki konspekt yozish, mavzuga doir grammatik topshiriqlar tuzish, test ishlanmalarini ishlab chiqish, ilmiy mavzuni jadvallarda aks ettirish kabilar.

«Hozirgi o'zbek adabiy tili» fanidan ilmiy referat yozish ishning rejasini tuzishdan boshlanadi. Buning uchun, avvalo, ilmiy referat yozish shaklidagi mustaqil ish topshirig'i nimadan iborat ekanligi, uni bajarish uchun qanday vazifalarni amalga oshirish lozimligini anglab yetish lozim.

Ilmiy referat rejasini tuzishda mavzuning mohiyatini atroflicha qamrab olishga harakat qilish lozim bo'ladi. Ilmiy referat mavzusi uchun xomaki reja masalaga doir ilmiy manbalar kartotekasi yaratilgach va bu manbalar o'rganilib, muayyan tasavvurga ega bo'lingach tuziladi. Referatni yozish jarayonida yangi ma'lumotlarga ega bo'linganda reja o'zgartirilishi yoki qo'shimcha ma'lumotlar bilan to'ldirilishi ham mumkin.

Ilmiy referat rejasida quyidagi masalalar qamrab olingan bo'lishi lozim:

1. Ilmiy mavzuning tadqiqi masalasi.
2. Mavzuga xos eng muhim jihatlarining ilmiy bayoni.
3. Ilmiy mavzu bo'yicha umumlashma xulosalar bayoni.
4. Ilmiy mavzu bo'yicha foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

“Ilmiy mavzuning tadqiqi masalasi” ilmiy referatning Kirish qismida bayon etiladi. Bunda talaba masalaga doir ilmiy adabiyotlar sharhini keltiradi. Ularga nisbatan o'z tanqidiy qarashlarini ifoda etadi.

“Mavzuga xos eng muhim jihatlarining ilmiy bayoni”da talaba ilmiy referatda ko'tarilgan muammo bo'yicha o'z kuzatishlarini bayon etadi. U o'z nazariy qarashlarini taqqoslaydi, xulosalarini asoslashga harakat qiladi. Eng asosiysi, talaba referatda ilgari surgan nazariy g'oyalarni ilmiy asoslashi lozim bo'ladi.

Talaba nazariy xulosalarini dalillash uchun badiiy asarlardan saralab olingan misollar tahliliga murojaat qiladi. Bunday misollar ko'tarilgan nazariy muammoni ochib berishga xizmat qilishi lozim.

Talaba chiqargan nazariy xulosalar referatda izchil tarzda bayon etilishi maqsadga muvofiq. Bo'lim (bob)larning o'zaro bog'liqligiga, ular o'rtasidagi mantiqiy izchillikka e'tibor qaratilishi lozim.

Talaba ilmiy referatda ko'tarilgan nazariy xulosalarini asoslashda sistem tilshunoslikning til hodisalarini tavsiflash, qiyoslash, o'zaro zidlash, shuningdek, bevosita ishtirokchilarga ajratish kabi tahlil usullaridan foydalangan holda ish ko'rishi lozim bo'ladi. Bu tahlil usullari to'g'ri tanlanishi va mavzuni ochib berishga xizmat qilishi lozim. Negaki ilmiy referatda ko'tarilgan nazariy muammoning to'laqonli yechimi tanlagan tahlil usuliga ham bog'liq bo'ladi.

“Ilmiy mavzu bo'yicha umumlashma xulosalar bayoni”da mavzu bo'yicha egallangan nazariy xulosalar umumlashtiriladi. Bu jarayonda talaba mavzuga oid nazariy xulosalarini qisqa umumlashmalarda aks ettiradi. Xulosalar alohida bandlarda aniq, lo'nda va izchil bayon etilishi lozim.

“Ilmiy mavzu bo'yicha foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati”da esa mavzuga aloqador foydalanilgan barcha adabiyotlar ro'yxati qayd etiladi.

Ilmiy referatni yozishda masalaga aloqador nashr etilganiga kamida besh-o'n yil bo'lgan so'nggi ilmiy-nazariy, o'quv-uslubiy adabiyotlar: darsliklar, uslubiy qo'llanmalar, monografiyalar, ilmiy maqola va tezislardan, shu bilan birga, elektron darsliklardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Ilmiy referatni yozishda tilshunoslikning dolzarb masalalari yechimiga bag'ishlangan respublikamizda nashr etiluvchi «O'zbek tili va adabiyoti», «Til va adabiyot ta'limi» jurnallariga ham murojaat qilish mumkin.

Ilmiy referatni yozishda mavzuga aloqador nazariy manbalarning yetarli bo'lishi, ularda masalaning chuqur tahlil etilganligimuhim ahamiyatga ega. Bular talabaga mavzu rejasini hamda yoritiladigan asosiy masalalarni to'g'ri belgilab olishga imkon yaratadi. Mavjud adabiyotlarni sinchiklab o'rganish orqali talaba mavzuni mustaqil o'rganadi va umumlashma xulosalar chiqaradi.

Ilmiy referat mavzusiga oid adabiyotlarni o'rganish orqali talaba mustaqil ishning maqsad va vazifalarini belgilab oladi, ishda nimaga e'tibor qarashi lozimligini fahmlaydi, asosiy va ikkilamchi masalalarni ajratadi. Ilmiy manbalarni o'rganish asosida talaba ilmiy referat mavzusining o'rganilganlik darajasini belgilaydi, mavzuning qaysi jihatleri hali o'rganilmaganligini anglab yetadi.

Ilmiy referat mavzusiga oid adabiyotlarni tahlil qilishni, avvalo, o'quv darsliklari va qo'llanmalardan boshlash lozim. Ma'lumki, darslik va o'quv qo'llanmalarida mavzuga oid eng muhim masalalar yoritiladi. Ularni tahlil qilish asosida ilmiy referat mavzusi yuzasidan dastlabki bilimga ega bo'lish mumkin.

Talaba ilmiy referat mavzusiga oid ilmiy manbalarni qancha ko'p o'qib o'rgansa, mavzu yuzasidan shunchalik ko'p nazariy ma'lumotga ega bo'ladi.

Ilmiy referatni yozishda masalaga doir ilmiy manbalardan muhim nazariy qarashlarni havola qilib keltirish mumkin. Bunday havolalar talabaning nazariy xulosasini ilmiy asoslashga yordam beradi.


Havolalar aynan yoki o'zlashtirma gap shaklida beriladi. Aynan beriladigan havolalar ilmiy manbadan hech o'zgartirishsiz ko'chiriladi. Havolalar o'zlashtirma gap shaklida berilganda ularning mazmuni to'liq saqlanib qolinishiga e'tibor qaratiladi.

Xullas, yuqorida birma-bir sharhlangan masalalar ilmiy referatda aniq va izchil tartibda bayon etilishi maqsadga muvofiq, matn o'zbek adabiy tili me'yorlariga rioya qilingan holda chiroyli dastxat bilan yozilishi lozim.

Ilmiy referat quyidagicha rasmiylashtiriladi:

1. Ilmiy referat qo'lyozma shaklida ko'k rangli ruchkada yoziladi. Boshqa rangdagi ruchkalar ishlatilmaydi. Misollarni ajratib ko'rsatishda yashil rangli ruchkadan foydalanish mumkin.

22/10 17



2. Ilmiy referatning har bir beti (titul varaq bundan mustasno) birma-bir sahifalanadi. Raqam sahifaning yuqori yoki quyi qismi o'rtasiga qo'yiladi. Ilmiy referatning titul varag'i birinchi varaq hisoblanadi. Ikkinchi varaqqa mavzu rejası bayon etiladi.

3. Referat matni varaqling o'ng tomonidan 1.5 sm, chap tomonidan 3 sm, yuqoridan 2.5 sm, quyi qismidan 2.5 sm hoshiya qoldirilgan holda yoziladi. Satrlar oralig'i 1.5 interval bo'lishi shart.

4. Referat rejasida ko'rsatilgan har bir masala bayoni yangi sahifadan boshlab yoziladi. Bunda bob (bo'lim)larning nomlari bosh harflar bilan, uning bandlari kichik harflar bilan yoziladi.

5. Bo'lim (bob) nomlarini yozishda bo'g'in ko'chirish qoidasiga yo'l qo'yilmaydi. Bob nomlaridan so'ng nuqta qo'yilmaydi.

6. «Hozirgi o'zbek adabiy tili» fanidan yoziladigan ilmiy referatning umumiy hajmi 15-18 sahifadan iborat bo'lishi lozim.

Ilmiy referat fan o'qituvchisi nazoratidan o'tkazilgach, belgilangan tartibda himoya qilinadi.

Ilmiy referatda ko'tarilgan muammo chuqur ilmiy asosga ega bo'lsa, ishga yuqori ball qo'yiladi. Bunday ishni talaba kelgusida bitiruv malakaviy ishi darajasiga olib chiqishi ham mumkin.

Uslubiy ko'rsatmaning avvalgi bo'limida «Hozirgi o'zbek adabiy tili» fani bo'yicha tashkil etiladigan mustaqil ishlarning turi va taxminiy mavzularini tavsiya etgan edik. Quyida tavsiya etilgan mustaqil ish turlaridan ayrimlarini bajarish yuzasidan tavsiyalarimizni bayon etamiz.

2.2. «Hozirgi o'zbek adabiy tili» fanidan mustaqil ishlarni bajarishga oid tavsiyalar

«Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari» mavzusi bo'yicha ilmiy referat yozish

«Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari» mavzusi yuzasidan ilmiy referatni yozishda quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

1. «Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari» mavzusini ilmiy referat tarzida yoritish rejasini belgilash.

«Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari» mavzusining tadqiq darajasini o'rganish va unga tanqidiy munosabat bildirish.

«Gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari» mavzusi bo‘yicha o‘zbek tilshunosligida shu kunga qadar shakllangan nazariy qarashlarni tahlil qilish.

O‘zbek adiblarining nasriy va nazmiy asarlaridan gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari: darak, so‘roq, buyruq va istak gaplar qo‘llangan misollarni ajratish, ularning semantik-sintaktik tuzilishini belgilash.

«Gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari» mavzusini yoritishda gap turlarini o‘zaro aloqa-bog‘lanishda o‘rganish, ularning umumiy va farqli belgilarni ajratish. Tahlil jarayonida tavsiflash, qiyoslash, zidlash, umumlashtirish, komponent tahlil usullaridan umumli foydalanish.

«Gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari» mavzusi yuzasidan umumlashma ilmiy-nazariy xulosalar chiqarish.

Mavzuni reja asosida to‘g‘ri, aniq va izchil, shuningdek, mantiqli tarzda bayon etish.

«Gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari» mavzusi bo‘yicha yoziladigan ilmiy referatni quyidagi reja asosida yozishni tavsiya etamiz:

GAPNING IFODA MAQSADIGA KO‘RA TURLARI

REJA:

Kirish. Gap haqidagi sintaktik nazariyalar tahlili.

1. Gapning ifoda maqsadi kategoriyasi.

1.1. Darak gaplarning semantik-sintaktik tuzilishi.

1.2. So‘roq gaplarning semantik-sintaktik tuzilishi.

1.3. Buyruq gaplarning semantik-sintaktik tuzilishi.

1.4. Istak gaplarning semantik-sintaktik tuzilishi.

2. Gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari: darak, so‘roq, buyruq va istak gaplarda shakliy-mazmuniy nomutanosiblik.

2.1. Darak gaplarda shakliy-mazmuniy nomutanosiblik.

2.2. So‘roq gaplarda shakliy-mazmuniy nomutanosiblik.

2.3. Buyruq gaplarda shakliy-mazmuniy nomutanosiblik.

2.4. Istak gaplarda shakliy-mazmuniy nomutanosiblik.

3. Umumiy xulosalar.

4. Foydalanilgan adabiyotlar.

Ilmiy referatning «Kirish» qismida mavzuning jahon tilshunosligida, jumladan, o‘zbek tilshunosligida shu kunga qadar shakllangan gap haqidagi nazariy qarashlar tahlil etiladi.

O'zbek tilshunoslaridan A.G'ulomov («Sodda gap»), A.Nurmonov («Gap haqidagi sintaktik nazariyalar». -Toshkent, 1988.)larning sodda gap sintaksisi yuzasidan bildirgan fikrlari alohida ahamiyatga ega bo'lib, ilmiy referatda ularga munosabat bildirish maqsadga muvofiqdir.

Ma'lumki, shu kunga qadar o'zbek tilshunosligida gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlariseantik-sintaktik yo'nalishda tadqiq etildi. Xususan, bu yo'nalishda A.G'ulomov, A.Ahmedov, H.Ismatullaevlarning nazariy xulosalari ahamiyatli. A.G'ulomov, M.Asqarovalarning «Hozirgi o'zbek adabiy tili»(-Toshkent: O'qituvchi, 1987) darsligida gapning ifoda maqsadiga ko'ra 3 turi farqlanadi. Bular: darak, so'roq va buyruq gaplardir. Darslik mualliflarihar bir gap turiga xos sintaktik xususiyatlarni birma-bir bayon etadilar.

N.Mahmudov, A.Nurmonovlarning «O'zbek tilining nazariy grammatikasi» (- Toshkent: Fan, 1995.) darsligidaham gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari haqida nazariy ma'lumot berildi. Shu bilan birga, bu kitobda ham gapning ifoda maqsadiga ko'ra yana bir turi - istak gaplar ajratildi.

Talaba mana shu ilmiy manbalarni jiddiy o'rganish orqali o'zbek tilshunosligida gap haqida shakllangan nazariy qarashlarni umumlashtirishi lozim bo'ladi.

«Gapning ifoda maqsadi kategoriyasi» deb nomlangan birinchi bo'limda gapning ifoda maqsadi kategoriyasiga tavsif beriladi hamda darak, so'roq, buyruq va istak gaplarning semantik-sintaktik tuzilishi daliliy misollar orqali ilmiy asoslanadi.

«Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari: darak, so'roq, buyruq va istak gaplarda shakliy-mazmuniy nomutanosiblik» deb nomlangan ikkinchi bo'limda semantik-sintaktik asimmetriya masalasi yoritiladi.

Ma'lumki, har bir gap turining nutqiy qo'llanishdagi semantik imkoniyatlari o'rganilar ekan, ularda shakliy-mazmuniy nomutanosiblik holatlariga ham duch kelinadi. Bu masala badiiy manbalardan saralab olingan daliliy misollar yordamida sharhlanadi, darak, so'roq, buyruq va istak gaplarda yuzaga kelgan shakliy-mazmuniy nomutanosiblik sababalariga izoh beriladi. Talaba bu murakkab muammoni yoritish uchun N.Mahmudovning «O'zbek tilidagi sodda gaplarda semantik-sintaktik asimmetriya» (- Toshkent: O'qituvchi, 1984. - 147 b.) hamda M.Haynazarovanning «So'roq gaplarda shakl va mazmun nomuvofiqligi» (- Toshkent, 1999. - 25 b.) nomli tadqiqot ishlarini jiddiy o'rganishi, ularga xolisona munosabat bildirishi lozim bo'ladi.

Ilmiy referatning “Umumiy xulosalar” qismida darak, so‘roq, buyruq va istak gaplarning semantik-sintaktik tuzilishi yuzasidan kuzatilgan ilmiy xulosalar umumlashtiriladi.

Ilmiy referatning “Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati” qismida ishni yozish mobaynida foydalanilgan ilmiy adabiyotlar tartibi bayon etiladi.

«Gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari» mavzusi bo‘yicha yoziladigan ilmiy referatda mavzuga aloqador quyidagi ilmiy manbalardan foydalanishni tavsiya etamiz:

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdurahmonov G‘. O‘zbek tili grammatikasi. - Toshkent: O‘qituvchi, 1996. - 248 b.
2. Abdurahmonov X., Rafiyev A., Shodmonqulova D. O‘zbek tilining amaliy grammatikasi - Toshkent: O‘qituvchi, 1992. - 223 b.
3. Abuzalova M. O‘zbek tilida sodda gapning eng kichik qurilish qolipi va uning nutqda voqelanishi: Filol. fan. nom. ... dis. avtoref. - Toshkent, 1994. - 21 b.
4. Ahmedov A. O‘zbek tilida gapning kommunikativ turlari. - Toshkent: Fan, 1979. - 170 b.
5. Ahmedov A. Hozirgi zamon o‘zbek tilida so‘roq gaplar: Filol. fan. nom. ... dis. avtoref. - Toshkent, 1965. - 218 b.
6. G‘ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. - Toshkent: O‘qituvchi, 1987.
7. Ismatullayev X. Ritorik so‘roq gaplar / ToshDU Ilmiy ishlar to‘plami. 268-son. 1964.
8. Qurbonova M. O‘zbek tilshunosligida shakl-funksional yo‘nalish va sodda gap qurilishining talqini // Filol. fan. d-ri ... diss. avtoref. - Toshkent. 2001. - 49 b.
9. Lutfullayeva D. Tasdiq gaplarda shakliy-mazmuniy nomuvofiqlik. - Toshkent: Fan, 1997. - 54 b.
10. Mahmudov N. Presuppozitsiya va gap // O‘zbek tili va adabiyoti. - 1986. - № 6. - B. 28-31.
11. Mahmudov N. O‘zbek tilidagi sodda gaplarda semantik-sintaktik asimmetriya. - Toshkent: O‘qituvchi, 1984. - 147 b.
12. Mahmudov N., Nurmonov A. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. - Toshkent: O‘qituvchi, 1995. - 230 b.

13. Ne'matov H., Sayfullayeva R., Qurbonova M. O'zbek tili struktural sintaksisi asoslari. - Toshkent: Universitet, 1999. - 55 b.
14. Nurmonov A. Gap haqidagi sintaktik nazariyalar. - Toshkent. 1988.
15. Nurmonov A., Mahmudov N., Ahmedov A., Solixo'jaeva S. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi. - Toshkent: Fan, 1992. - 292 b.
16. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy ozbek tili. - Toshkent: Universitet, 2006. - 464 b.
17. Rahimov U. O'zbek tilida yuklamalar presuppozitsiyasi: Filol. fan. nom. ... dis. avtoref. -Samarqand. - 1994. - 23 b.
18. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek tili. - Toshkent. 2007. - 380 b.
19. Solixo'jayeva S. Ekspressiv-emotsional gaplarning hosil bo'lishida ba'zi yuklamalarning roli // O'zbek tili va adabiyoti, 1986, - №1. - B. 59-62.
20. Solixo'jayeva S. Emotsionallikni ifodalovchi vositalar // O'zbek tili va adabiyoti. - Toshkent, 1978. - № 5. - B. 44-46.
21. O'zbek tili grammatikasi. T. 1. - Toshkent: Fan, 1975. - 610 b.
22. Haynazarova M. So'roq gaplarda shakl va mazmun nomuvofiqligi: Filol. fan. nom. ... diss. avtoref. - Toshkent, 1999. - 25 b.

«O'zbek tilida yordamchi so'zlar pragmatikasi» mavzusi bo'yicha ilmiy referat yozish

«O'zbek tilida yordamchi so'zlar pragmatikasi» mavzusi yuzasidan ilmiy referatni yozishda quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

1. «O'zbek tilida yordamchi so'zlar pragmatikasi» mavzusining rejasini belgilash.
2. «O'zbek tilida yordamchi so'zlar pragmatikasi» mavzusining o'zbek tilshunosligida o'rganilish darajasini tahlil qilish, mavjud manbalarga tanqidiy munosabat bildirish.

«O'zbek tilida yordamchi so'zlar pragmatikasi» mavzusi bo'yicha mavjud ilmiy-nazariy qarashlarni tahlil qilish.

O'zbek adiblarining nasriy va nazmiy asarlaridan yordamchi so'zlar qo'llangan misollarni ajratish, ularni pragmatik yo'nalishda tahlil qilish.

«O‘zbek tilida yordamchi so‘zlar pragmatikasi» mavzusini yoritishda tavsiflash, qiyoslash, zidlash, umumlashtirish, komponent tahlil usullaridan unumli foydalanish.

«O‘zbek tilida yordamchi so‘zlar pragmatikasi» mavzusi yuzasidan umumlashma ilmiy-nazariy xulosalar chiqarish hamda ularni to‘g‘ri, aniq, izchil tarzda bayon etish.

«O‘zbek tilida yordamchi so‘zlar pragmatikasi» mavzusi bo‘yicha yoziladigan ilmiy referat rejasi

Kirish.

1. Pragmatikaning nazariy masalalari.
2. O‘zbek tilshunosligida yordamchi so‘zlar tadqiqi.

I. Bob. Yordamchi so‘zlarning morfologik belgi-xususiyatlari.

- 1.1. Ko‘makchilarning morfologik xususiyatlari.
- 1.2. Bog‘lovchilarning morfologik xususiyatlari.
- 1.3. Yuklamalarning morfologik xususiyatlari.

II. Bob. Yordamchi so‘zlarning pragmatik xususiyatlari.

- 2.1. Ko‘makchilarning pragmatik xususiyatlari.
- 2.2. Yuklamalarning pragmatik xususiyatlari.

Umumiy xulosalar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

Ilmiy referatning Kirish qismida «Pragmatika» sohasining nazariy masalalari hamda o‘zbek tilshunosligida yordamchi so‘zlarning tadqiqi masalasiga munosabat bildiriladi.

Ma‘lumki, til birliklarining nutq jarayonida kontekst va nutqiy vaziyat, til egalarining obyektiv borliq haqidagi umumiy bilimlari bilan bog‘liq tarzda yuzaga chiquvchi pragmatik vazifalarini o‘rganish o‘zbek tilshunosligining dolzarb muammolaridan biri sanaladi.

Pragmatika - til birliklarining nutqiy vaziyat hamda nutq egalarining til ko‘nikmalari bilan bog‘liq tarzda yuzaga chiquvchi xususiyatlarini o‘rganuvchi tilshunoslikning alohida yo‘nalishi sanaladi.

O‘zbek tilshunosligida yordamchi so‘zlarning, xususan, ko‘makchilarning pragmatik tabiatini o‘rganishga XX asrning 80-yillaridan boshlab e‘tibor qaratildi.

Ma‘lumki, uzoq yillar davomida asosiy hollarda yordamchi so‘zlarning grammatik tabiati, semantik xususiyatlari o‘rganildi, ammo nutqiy

vaziyatda yuzaga chiquvchi pragmatik vazifasini o'rganishga jiddiy e'tibor qaratilmadi. Buning natijasida yordamchi so'zlarlarning nutqiy qo'llanishda namoyon bo'luvchi pragmatik belgilari aniqlanmay qoldi.

Hozirgi kunda o'zbek tilshunosligida so'z turkumlari ichida yuklamalar va ko'makchilarning pragmatik xususiyatlari, xususan, gap tarkibida presuppozitsiyaga ishora qilishi masalasi U.Rahimov va Z.Burhonovlar tomonidan monografik aspektida maxsus o'rganilgan. Ammo bog'lovchilarning pragmatik xususiyati masalasi alohida tadqiqot ob'ekti bo'lgan emas. Bu holat bog'lovchilarning ham pragmatik vazifasini aniqlash va gap semantik tuzilishida tutgan o'rnini belgilash muammosini o'rtaga qo'yadi.

Ilmiy referatda yordamchi so'zlardan ko'makchi va yuklamalarning pragmatik xususiyatini ochib berish maqsad qilib belgilanadi.

Ilmiy referatni yozishdagi aloqabog'lanishdagi birliklar yig'indisidan tashkil topgan butunlik sifatida qarovchi lingvistik ta'limot hamda borliqdagi narsa-hodisalarning substantsionalligini, ziddiyatli tabiatga ega ekanligini e'tirof etuvchi dialektik falsafa kategoriyalari tadqiqot uchun metodologik asos bo'lib xizmat qilishi lozim.

Mavzu tahlilida zamonaviy tilshunoslikning tavsiflash, qiyoslash, transformatsiyalash, zidlash usullarini qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Ilmiy referatning asosiy boblarida quyidagi masalalar tahlilga tortiladi:

1. Ko'makchilarning morfologik xususiyatlari.
2. Bog'lovchilarning morfologik xususiyatlari.
3. Yuklamalarning morfologik xususiyatlari.
4. Ko'makchilarning pragmatik xususiyatlari.
5. Yuklamalarning pragmatik xususiyatlari.

Ilmiy referatning "Umumiy xulosalar" qismida nazariy xulosalar umumlashtiriladi.

Ilmiy referatning «Adabiyotlar ro'yxati» qismida esa foydalanilgan ilmiy manbalar ro'yxati qayd etiladi.

«O'zbek tilida yordamchi so'zlar pragmatikasi» mavzusidagi ilmiy referatda mavzuga doir quyidagi ilmiy adabiyotlardan foydalanishni tavsiya etamiz:

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Демьянков В. Прагматические основы интерпретации высказывания // [http: www. infolex.ru/IZV4_81.html](http://www.infolex.ru/IZV4_81.html).
2. Isoqov Z. So'zlar turkumlari sistemasida yordamchi so'zlar // O'zbek tili va adabiyoti. 2002. - №2. - B. 75-76.
3. Lutfullayeva D. O'rniga ko'makchili konstruksiyalar presuppozitsiyasi // O'zbek tili va adabiyoti. - Toshkent. - 1996. - №5. - B. 46-48.
4. Mahmudov N. O'zbek tilidagi sodda gaplarda semantik-sintaktik asimetriya. - Toshkent: O'qituvchi, 1984. - 147 b.
5. Mahmudov N. Presuppozitsiya va gap // O'zbek tili va adabiyoti. - Toshkent. - 1986. - № 6. - B. 28-31.
6. Nurmonov A. Ko'makchili konstruksiyalar presuppozitsiyasi // O'zbek tili va adabiyoti. - Toshkent. - 1986. - № 6. - B. 42-45.
7. Nurmonov A., Mahmudov N., Ahmedov A., Solixo'jayeva S. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi. - Toshkent: Fan, 1992. - 292 b.
8. Nurmonov A., Hakimov M. Lingvistik pragmatikaning nazariy shakllanishi // O'zbek tili va adabiyoti. - Toshkent. 2001. - №4. - B. 56-57.
9. Nurmonov A., Sh., Iskandarova Sh., Nabiyeva D. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. Morfologiya. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2001. - 164 b.
10. Pardayev A. Hozirgi o'zbek tilida ko'makchilarning funksional-stilistik xususiyatlari: Filol. fan. nom. ... diss. avtoref. - Samarqand, 2005. - 25 b.
11. Rasulov R. O'zbek tilida yordamchi so'zlarning semantik-grammatik xususiyatlari. - Toshkent: Fan, 1983. - 112 b.
12. Rahimov U. O'zbek tilida yuklamalar presuppozitsiyasi: Filol. fan. nom. ... dis. avtoref. - Samarqand. - 1994. - 23 b.
13. Rahimov U. Tagma'no va presuppozitsiya // O'zbek tili va adabiyoti. - Toshkent. - 2005. - № 5. - B. 29-33.
14. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy ozbek tili. - Toshkent: Universitet, 2006. - 464 b.
15. Rustamov T. Sof ko'makchilar. - Toshkent: Fan, 1991. - 124 b.
16. Rustamov T. Jihatdan // jihatidan ko'makchisi haqida // Til va adabiyot ta'limi. - 2000. - №2. - B. 27-28.

17. Rustamov T. *Biki // bikin* ko‘makchisi va uning fonetik shakllari // O‘zbek tili va adabiyoti. - Toshkent. - 2000. - №3. - B. 50-52.

18. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o‘zbek tili. - Toshkent. 2007. - 380 b.

19. Tohirov Z. O‘zbek tilida pragmatik semalarning hosil bo‘lishi va ularda sub‘ektiv munosabatlarning yuzaga chiqishi: Filol. fan. nom. ... diss. avtoref. - Toshkent. 1994.

20. Tursunboyev T. O‘zbek tilida yordamchi so‘zlar konversiyasi: Filol. fan. nom. ... diss. avtoref. - Toshkent. 1996.

21. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. - Toshkent: O‘qituvchi, 1992. - 398 b.

22. Fuzailov S. Ko‘makchi va ko‘makchi otlar haqida ba’zi mulohazalar: O‘zbek tilshunosligining aktual masalalari: Ilm. ish.to‘p. - Toshkent. 1988. - B.10-17.

23. Shahobiddinova Sh. Morfologik kategoriyalar tahlili / A.Nurmonov va boshqalar. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. - Toshkent: Yangi asr avlodi. 2001. - B. 75-100.

24. Shoabdurahmonov Sh. O‘zbek tilida yordamchi so‘zlar: Hozirgi zamon o‘zbek tili kursidan materiallar. - Toshkent: O‘zFA, 1953.

25. Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A., Rasulov I., Donyorov X. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 1- qism. - Toshkent: O‘qituvchi, 1980. - 448 b.

26. Eltazarov J. So‘z turkumlari paradigmasidagi o‘zaro aloqa hamda ko‘chish hollari. - Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2006. -168 b.

27. Eltazarov J. O‘zbek tilida so‘z turkumlarining o‘zaro aloqasi va ko‘chishi: Filol. fan. d-ri ... diss. avtoref. - Toshkent, 2007. - 42 b.

28. O‘rinboyeva D. O‘zbek so‘zlashuv nutqida o‘zgarmaydigan so‘zlar (yordamchi so‘zlar): Filol. fan. nom. ... diss. avtoref. - Samarqand, 1994. - 21 b.

29. Qurbonov T., Ernazarov N. Yordamchi so‘zlar stilistikasiga doir // O‘zbek tili grammatik qurilishi masalalari. Ilmiy maqolalar to‘plami. - Samarqand: SamDU, 1984. - B. 76-81.

30. Hakimov M. O‘zbek tilida matnning pragmatik talqini: Filol. fan. d-ri ... diss. avtoref. - Toshkent. 2001. - 49 b.

Yuqorida qayd etganimizdek, «Hozirgi o‘zbek adabiy tili» fanidan mustaqil ishlar topshirig‘i mavzuga doir grammatik topshiriqlar tuzish, test

ishlanmalarini ishlab chiqish, ilmiy mavzuni jadvallarda aks ettirish tarzida ham berilishi mumkin.

Quyida mavzular bo'yicha grammatik topshiriqlar tizimini yaratish topshirig'i xususida amaliy tavsiyalar beramiz.

2.2. MAVZULAR BO'YICHA GRAMMATIK TOPSHIRIQLAR TIZIMINI YARATISH

«Fe'ning grammatik kategoriyalari» mavzusi bo'yicha grammatik topshiriqlar tizimini yaratish

«Fe'ning grammatik kategoriyalari» mavzusi bo'yicha grammatik topshiriqlar tizimini ishlab chiqishda quyidagi vazifalarni bajarish lozim bo'ladi:

1. «Fe'ning grammatik kategoriyalari» mavzusini o'zlashtirish.
2. Grammatik topshiriq turlari haqida ma'lumotga ega bo'lish.
3. «Fe'ning grammatik kategoriyalari» mavzusining talaba bilishi lozim bo'lgan jihatlarini hisobga olgan holda grammatik topshiriqlarni ishlab chiqish.

«Fe'ning grammatik kategoriyalari» mavzusi bo'yicha grammatik topshiriqlarning quyidagi turlarini tuzishni tavsiya etamiz:

1. «Fe'ning grammatik kategoriyalari»ni aniqlashga doir nazorat savollarini tuzish.
2. Fe'llarning grammatik xususiyatlarini o'rganishga doir morfologik tahlillar o'tkazish.
3. «Fe'ning grammatik kategoriyalari» mavzusiga doir jadvallar ustida ishlash.
4. «Fe'ning grammatik kategoriyalari» mavzusiga doir testlar tuzish.
5. «Fe'ning grammatik kategoriyalari» mavzusiga doir grammatik boshqotirmalarni tuzish.

«Fe'ning grammatik kategoriyalari» mavzusiga oid quyidagi grammatik topshiriqlar namunasini tavsiya etamiz:

1- topshiriq. Quyidagi nazorat savollariga javob bering.

1. Fe'ning nisbat kategoriyasi qanday qo'shimchalar bilan hosil qilinadi?
2. Fe'ning mayl kategoriyasi qanday ma'noni anglatadi?
3. Fe'ning bo'lishsizligi qanday shakllar orqali hosil bo'ladi?
4. Fe'ning zamon kategoriyasi qanday ma'noni anglatadi?
5. Fe'ning shaxs-son kategoriyasi qanday hosil bo'ladi?
6. Fe'ning o'timli-o'timsizligi qanday farqlanadi?

2- topshiriq. "Tushunchalar tahlili" usuli orqali "Fe'l" mavzusiga oid tayanch tushunchalarga izoh bering.

Tushunchalar	Izohi
<i>Mustaqil fe'llar</i>	
<i>Yordamchi fe'llar</i>	
<i>Bo'lishli-bo'lishsizlik</i>	
<i>Fe'l nisbati</i>	
<i>Fe'l mayli</i>	
<i>Fe'l zamonlari</i>	
<i>Fe'ning shaxs-son kategoriyasi</i>	
<i>Tuslanishli va tuslanishsiz fe'llar</i>	
<i>Fe'llarda o'timli-o'timsizlik</i>	
<i>Fe'ning vazifadosh shakli</i>	
<i>Fe'ning modal shakli</i>	
<i>Fe'llarning analitik va sintetik shakllari</i>	

3- topshiriq. Berilgan fe'llarga xos grammatik ma'nolarni belgilang: *yugurdim, aytib kelishdi, o'ylandi, yig'lamasin, gapirilsa, ko'tarmas ekan, o'qilsin, anglab yetdim.*

NAMUNA: *yugurdim* – o'timsiz, aniq nisbatda, bo'lishli fe'l, o'tgan zamon (-di) shaklini qabul qilgan, 1 shaxs birlikda.

4- topshiriq. Berilgan matn ko'rinishidan fe'l turkumiga oid so'zlarni ajratib va grammatik kategoriyalarini belgilang.

DONISHMAND

Nar lochin yemish topib kel'arkan. Moda lochin o'ljani polaponlariga bo'lashib berarkan. Biron falokat bo'lib, moda lochin o'lib qolsa, nar lochin har qancha yemish topib keltirmasin, baribir, polaponlar ochidan nobud bo'lar ekan. Negaki, nar lochin o'ljani bolalariga burdalab berishni eplolmas ekan...

Tabiat naqadar beshafqat, tabiat naqadar dono!(O'.Hoshimov)

5- topshiriq. Berilgan gaplardan fe'llarni ajratib, nisbati, zamoni, shaxs-soni va maylini aniqlang.

1. Otangizdan bir parcha yer qolganda o'sha qattiqchilikni ko'rmas edingiz. (A.Qahhor). 2. – Ra'noini egasiga topshirmaguningizgacha, – dedi Nigor oyim, – quyulmaydiganga o'xshaydi. (A. Qodiriy). 3. Tojiboy bir-ikki qadam oldinda bormoqda edi, ovozni eshitib ketiga qaradi, eshagini o'z holiga qo'yib yubordi... (S. Abdulla). 4. CHor tarafga angraya-angraya attorlikka o'taman. (Oybek).

6- topshiriq. Fe'l kategoriyalari haqida ma'lumot bering.

7- topshiriq. Maqollarda qo'llangan fe'llarni aniqlang va morfologik tahlil qiling.

1. *Qilich toshda, odam ishda qayraladi.* 2. *Nomussiz hayotdan o'lim ming marta afzal.* 3. *El aziz etgan kishini hech kishi xor aylamas.* 4. *Yomonga kun ham, tun ham qorong'u.* 5. *Usta borida qo'lingni tiy, ustod borida tilingni.* 6. *Do'st otgan tosh bosh yormas.* 7. *Achchiq til – zahri ilon, shirin tilga – jon qurbon.*

TAHLIL TARTIBI

1. Fe'lning ma'no turini aniqlash.
2. Fe'lning o'timli – o'timsizligini belgilash.
3. Fe'l nisbat shaklini aniqlash.
4. Fe'lning bo'lishli-bo'lishsizligini belgilash.
5. Fe'lning shaxs-son shaklini aniqlash.
7. Fe'l mayl kategoriyasini ko'rsatish.

8. Fe'ning zamon shaklini aniqlash.
9. Fe'ning gapdagi sintaktik vazifasini ko'rsatish.

2.3. MATN USTIDA ISHLASH BO'YICHA MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL ETISH

Matn ustida ishlashda sintaktik tahlil o'tkazish orqali matnning semantik-sintaktik strukturasi bo'yicha mustaqil tarzda nazariy ma'lumot yozish topshirig'ini bajarish mumkin. Quyida sintaktik birliklar tahlili bo'yicha namunalarni tavsiya qilamiz.

SO'Z BIRIKMASINI TAHLIL QILISH TARTIBI

1. Gapdagi so'zlarning o'zaro bog'lanishi ko'rsatiladi va shu asosda gapdagi so'z birikmalari aniqlanadi.
2. So'z birikmasida hokim va tobe so'zlar ajratiladi, ularning ifodalanishi, morfologik shakli qayd etiladi.
3. So'z birikmasi qismlari orasida shakllangan sintaktik aloqa turi belgilanadi.
4. So'z birikmasi qismlarining erkin yoki bog'liq ekanligiga ko'ra turi (erkin va bog'liq aloqa) aniqlanadi.
5. Tobelikning yo'nalishiga ko'ra sintaktik aloqa turlari (koordinativ yoki subordinativ aloqa) aniqlanadi.
6. So'z birikmasi qismlari orasida shakllangan mazmuniy-sintaktik munosabat turi qayd etiladi: a) atributiv munosabat (sifatlovchi-sifatlanmish munosabati, ifodalanishi, morfologik shakli) ko'rsatiladi; b) obyektli munosabat (to'ldiruvchi- to'ldirilmish munosabati, ifodalanishi, morfologik shakli, to'ldiruvchining turi: vositali, vositasiz, kelishikli yoki ko'makhchili, funksional yoki nofunksional ekanligi) belgilanadi; c) relyativ munosabat (hol-hollanmish munosabati, ifodalanishi, morfologik shakli, holning turi, funksional yoki nofunksional ekanligi) belgilanadi.
7. Hokim so'zning qaysi so'z turkumiga mansubligiga ko'ra so'z birikmasi tiplari (otli birikma, felli birikma, ravishli birikma) aniqlanadi.
8. So'z birikmasi qismlarini bog'lovchi vositalar (formal-grammatik vositalar, leksik-grammatik vositalar, pozitsion vosita – so'z tartibi, intonatsiya) aniqlanadi.

9. Tobe bog‘lanish usullari qayd etiladi: a) moslashuv usuli va unga xos belgilar (hokim va tobe so‘zning ifoda materiali, ularning qanday morfologik shakllar orqali moslashuvi) belgilanadi; b) boshqaruv usuli va unga xos belgilar (boshqaruvchi va boshqariluvchi so‘zlar aniqlanadi, hokim so‘zning qaysi so‘z turkumi bilan ifodalanishiga ko‘ra boshqaruv turlari (fe‘l boshkaruvi, ot boshqaruvi, sifat boshqaruvi, ravish boshqaruvi, son boshqaruvi) aniqlanadi, tobe so‘zning grammatik shakliga ko‘ra boshqaruv turlari (kelishikli va ko‘makchili boshqaruv) ko‘rsatiladi; c) bitishuv usuli va unga xos belgilar (hokim va tobe so‘zning ifoda materiali, ularning qanday grammatik vosita orqali birikishi) qayd etiladi.

10. So‘z birikmasining tuzilishiga ko‘ra turi (sodda yoki murakkab ekanligi) belgilanadi.

11. So‘z birikmasining semantikasi aniqlanadi.

12. So‘z birikmasining qurilish modeli belgilanadi.

INAMUNA

Bir yil tut ekan kishi yuz yil gavhar teradi. (Maqol)

So‘z birikmalari: *bir yil, tut ekan, bir yil tut ekan, tut ekan kishi, yuz yil, yuz yil termoq, gavhar termoq.*

Bir yil – so‘z birikmasi, *bir* – tobe so‘z, son bilan ifodalangan; *yil* – hokim so‘z, ot bilan ifodalangan; tobe aloqa: erkin aloqada; subordinativ (bir tomonlama) aloqa, atributiv munosabat, aniqlovchili birikma; otlı birikma, qismlarnı bog‘lovchi vosita: tartib va ohang, qismlar bitishuv usulida bog‘langan: son+ot tuzilishida, sodda birikma; miqdor + vaqt uzvlarini aks ettirgan, qurilish modeli :[I_{sif}+I_{ot}]

SODDA GAPNI SINTAKTIK TAHLILI QILISH TARTIBI

1. Gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turi (darak, so‘roq, buyruq, istak gap) belgilanadi.

2. Gapning emotsionallikka ko‘ra turi (his-hayajonli yoki his-hayajonsiz gap) aniqlanadi.

3. Gapning grammatik asosi miqdoriga ko‘ra turi (sodda yoki qo‘shma gap) belgilanadi.

4. Eganing ishtirokiga ko'ra gap turi (egasiz yoki egali gap) ko'rsatiladi.

5. Kesimdan boshqa bo'laklarning ishtirokiga ko'ra gap turi (yig'iq yoki yoyiq gap) belgilanadi.

6. Zaruriy bo'laklarning ishtirokiga ko'ra gap turi (to'liq yoki to'liqsiz gap) ko'rsatiladi.

7. Gapning tasdiq yoki inkorni ifodalashiga ko'ra turi (tasdiq yoki inkor gap) ko'rsatiladi.

8. Sintaktik vazifa bajarmaydigan elementlarning mavjud yoki mavjud emasligiga ko'ra gap turi (murakkablashgan yoki murakkablashmagan gaplar) ko'rsatiladi.

NAMUNA

Elmurod bu yerga har kuni keluvchi mehmonlarning hammasini birma-bir tanib oldi. (P. Tursun)

Gap tasnifi bo'yicha tahlil: darak gap, his-hayajonsiz gap, sodda gap, egali gap, sodda yoyiq gap, to'liq gap, tasdiq gap, sifatdosh o'ram bilan murakkablashgan sodda gap.

Gap bo'laklari bo'yicha tahlil: ega + nomustaqil o'rin holi + nomustaqil payt holi + sifatlovchi aniqlovchi + qaratqich aniqlovchi + vositasiz to'ldiruvchi + ravish holi + tarkibli fe'l- kesim.

Uyushiq bo'lakli gaplar tahlili

NAMUNA

Cho'lpon umri davomida juda ko'p narsalarning: qiziq, shirin nash'ali voqealarning guvohi bo'lgan.— Ushbu gapda sifatlovchi aniqlovchi vaziyatidagi *qiziq, shirin nash'ali* birikmalari uyushgan, *voqealarning* so'ziga tobelangan, *narsalarning* umumlashtiruvchi so'zi bilan qo'llangan.

Ajratilgan bo'laklar tahlili

NAMUNA

U yana avvalgi joyiga – stulga o'tirdi. Ushbu gap – ajratilgan bo'lakli sodda gap. Gapning mazmuniy tuzilishi murakkab, chunki unda ikkita axborot ifodasi mavjud: 1. *U yana avvalgi joyiga o'tirdi.* 2. *Uning avvalgi joyi stul edi.* 1-asosiy axborot gapning predikativ markazi orqali, 2-qo'shimcha axborot ajratilgan bo'lak va u izohlab kelayotgan bo'lak orqali yuzaga chiqqan.

Undalma tahlili

NAMUNA

*Jilg'alar bo'yiga cho'kkan guloyim,
Bulbulning patidan barging muloyim.*

Jilg'alar bo'yiga cho'kkan guloyim – yoyiq undalma, murakkab so'z birikmasi bilan ifodalangan, bu undalma gapda "*Guloyim jilg'alar bo'yiga cho'kkan edi*" presuppositsiyasini uyg'otadi.

Xullas, «Hozirgi o'zbek adabiy tili» fanidan mustaqil ishlar topshirig'ini mavzu mohiyatidan kelib chiqqan holda turli shakllarda tuzish mumkin. Albatta, bu kabi nazorat topshiriqlari talabanning «Hozirgi o'zbek adabiy tili» fanidan egallagan nazariy bilimlarini mustahkamlashga xizmat qilish bilan birga, ularni ijodiy mustaqillikka, erkin fikr yuritishga, nutqiy malakasini oshirishga yordam beradi.

M U N D A R I J A

So‘zboshi	3
I. «Hozirgi o‘zbek adabiy tili»fanidan mustaqil ishlarni tashkil etish	6
1.1. «Hozirgi o‘zbek adabiy tili» fani bo‘yicha mustaqil ishlarni tashkil etishdan ko‘zlangan maqsad va vazifalar.....	6
1.2. «Hozirgi o‘zbek adabiy tili» fanidan semestrlar bo‘yicha mustaqil ish turlari va mavzulari.....	10
II. «Hozirgi o‘zbek adabiy tili»fanidan mustaqil ishlarni bajarishga doir ko‘rsatmalar	15
2.1. «Hozirgi o‘zbek adabiy tili»fanidan ilmiy referat yozish tartibi.....	15
2.2. Mavzular bo‘yicha grammatik topshiriqlar tizimini yaratish...	27
2.3. Matn ustida ishlash bo‘yicha mustaqil ishlar.....	30

Adadi 50 nusxa. Hajmi 2,25 b/t. Bichimi 60x84 ¹/₁₆
«Times New Roman» garniturasida. Ofset usulida bosildi.
Nizomiy nomidagi TDPU bosmaxonasida nashr qilindi.
Toshkent, Yusuf Xos Hojib 103.